O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA NOGIRONLIGI BO‘LGAN XOTIN-QIZLARNI IJTIMOIY HAYOTGA MOSLASHTIRISHDA “AYOLLAR DAFTARI” NING O‘RNI: TARIXIY-TAHLILIY YONDASHUV

Yuldoshova Nasiba To‘raboyevna
Urganch davlat universiteti
nasibayuldoshova567@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu tezisda O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan xotin-qizlarning ijtimoiy hayotga moslashuvida “Ayollar daftari” ning o‘rni va ahamiyati ochib berildi, bu tizimning joriy qilinishi va amaliyotga tadbiq qilinishida muhim hisoblangan normativ-huquqiy hujjatlar o‘rganildi, undan tashqari, Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining hisobotlari asosida 2024-2025-yillarda ko‘rsatilgan xizmatlar va berilgan yordamlar tahlil qilindi va amaliy tavsiyalar berildi.*

Kalit so‘zlar: *Ayollar daftari, nogironligi bo‘lgan xotin-qizlar, ijtimoiy himoya, reabilitatsiya, bir martalik yordam, tibbiy yordam.*

Аннотация. *В данной тезисе раскрыты роль и значение системы “Женская тетрадь”в социальной адаптации женщин с инвалидностью в Узбекистане, изучены нормативно-правовые акты, имеющие важное значение для внедрения и практической реализации данной системы. Кроме того, на основе отчетов Комитета семьи и женщин проанализированы услуги и помощь, оказанные в 2024–2025 годах, а также даны практические рекомендации.*

Ключевые слова: *“Женская тетрадь”, женщины с инвалидностью, социальная защита, реабилитация, единовременная помощь, медицинская помощь.*

Abstract. *This thesis highlights the role and significance of the “Women's Ledger” system in the social adaptation of women with disabilities in Uzbekistan, and examines the regulatory legal acts crucial for the introduction and practical implementation of this system. Furthermore, based on reports from the Committee on Family and Women, the services provided and assistance rendered in 2024–2025 are analyzed, and practical recommendations are offered.*

Keywords: *"Women's Ledger", women with disabilities, social protection, rehabilitation, one-time assistance, medical care.*

Bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning tub negizini "Inson qadri uchun" tamoyili tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlarning og‘irini yengil qilish, ular uchun barcha sohalarda zarur sharoitlarni yaratib berish doimo davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi"[5]. Aynan ushbu konseptual g‘oya "Ayollar daftari" tizimi orqali nogironligi bo‘lgan xotin-qizlarga manzilli ijtimoiy yordam ko‘rsatish mexanizmlarida o‘zining amaliy ifodasini topmoqda.

Mamlakatimizda ijtimoiy himoya tizimini transformatsiya qilishning konseptual yo‘nalishlari Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asarida ilmiy-nazariy jihatdan mukammal asoslab berilgan va asarning ijtimoiy davlat barpo etishga qaratilgan yo‘nalishlarida aholining ko‘makka muhtoj qatlamlarini shunchaki moddiy nafaqalar bilan ta'minlash emas, balki ularni kambag‘allikdan va ijtimoiy yakkalanishdan chiqarishning strategik vazifalari belgilangan[1].

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risidagi PF-87-son Farmoni[2], Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PF-240-son Farmoni[3] hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 145-sonli qarori[4] bilan tasdiqlangan nizom ushbu tizimning huquqiy poydevori bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarga asosan, "Ijtimoiy yordamga muhtoj I va II guruh nogironligi bo‘lgan ehtiyojmand xotin-qizlar" "Ayollar daftari"ning alohida to‘rtinchi toifasi sifatida belgilangan bo‘lib, ularga manzilli moddiy yordam ko‘rsatish, dori-darmon va reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlashning aniq mexanizmlari joriy etilgan.

Ayollar daftari bu ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo‘llab-quvvatlashga, bilim va kasb o‘rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo‘lgan, ishsiz xotin-qizlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish bo‘yicha ma'lumotlar bazasi hisoblanadi.

Ayollar daftari»ga 30 yoshdan oshgan quyidagi toifadagi xotin-qizlar kiritiladi:

1-toifa. Ijtimoiy himoyaga muhtoj ishsiz xotin-qizlar

2-toifa. Tadbirkorlik qilish istagida bo‘lgan ehtiyojmand xotin-qizlar

3-toifa. Boquvchisi bo‘lmagan ehtiyojmand xotin-qizlar

4-toifa. Ijtimoiy yordamga muhtoj I va II guruh nogironligi bo‘lgan, shuningdek, tezkor tibbiy muolajaga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlar

5-tioifa. Uy-joyga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlar

6-toifa. Qaramog‘ida nogironligi bo‘lgan farzandi mavjud ehtiyojmand xotin-qizlar[4]

Bunda «Ayollar daftari» ro‘yxatiga kiritiladigan xotin-qizlar yuqoridagi toifalardan faqat biriga kiritilishi mumkin. Nogironligi bo‘lgan xotin-qizlar esa, asosan, 4-toifaga kiradi.

Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi 2024-yilda amalga oshirilgan ishlari haqida ma’lumot berib, Kasaba uyushmalari Federatsiyasi bilan hamkorlikda “Ayollar daftari”ga kiritilgan 1 mln 265 nafar ehtiyojmand xotin-qizlarning 995 239 nafariga tegishli yordamlar ko‘rsatilganligini ma’lum qiladi. Bundan tashqari, shu yillar ichida ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan 548 857 nafar ishsiz xotin-qizlarning bandligi ta’minlanadi; 35 968 nafar xotin-qizlarga tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yishlari uchun kreditlar ajratiladi; boquvchisini yo‘qotgan, ijtimoiy yordamga muhtoj bo‘lgan 160 893 nafar xotin-qizlarga moddiy yordamlar ko‘rsatiladi; ijtimoiy yordamga muhtoj I- va II-guruh nogironligi bo‘lgan, shuningdek, tezkor tibbiy muolajaga muhtoj bo‘lgan 181 724 nafar ehtiyojmand xotin-qizlarga moddiy yordamlar ajratiladi; 5 459 nafar xotin-qizlarga turar-joy uchun ijara kompensatsiyasi to‘lab berildi; qaramog‘ida nogironligi bo‘lgan farzandi mavjud 61 906 nafar xotin-qizlarga moddiy yordamlar ko‘rsatildi, ularning 1 470 nafariga tomorqasidan samarali foydalanishiga ko‘maklashildi, shuningdek, 2 794 nafarining uy-joylarini ta’mirlab beriladi; 2 056 nafar og‘ir turmush sharoitida yashayotgan tibbiy yordamga muhtoj xotin-qizlar va ularning farzandlariga jarrohlik amaliyotlari o‘tkazilishi uchun Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi hisobidan 18 mlrd. 712 mln so‘m mablag‘ sarflanadi; 4 647 nafar nogironligi bo‘lgan xotin-qizlar va voyaga yetmagan bolalar protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya vositalari bilan ta’minlanadi[6].

2025-yil davomida Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining ma’sul vazirlik va idoralar bilan birgalikda oilalarni va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi hisobotida quyidagi ma’lumotlarni ko‘rishimiz mumkin. “Ayollar daftari”ga kiritilgan 1 022 476 nafar xotin-qizlarning 1 020 981nafariga (99,9%) amaliy yordam ko‘rsatiladi va shundan, 634 639 nafarining bandligi ta’minlanadi; 33 399 nafariga tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yishi uchun 316,9 mlrd. so‘m imtiyozli kreditlar ajratiladi; 3 975 nafar uy-joy ta’minotida amaliy yordam ko‘rsatiladi; 230 nafari uy-joy bilan

ta’minlanadi; 2 828 nafariga 5,1 mlrd. so‘m miqdorida ijara kompensatsiyasi to‘lab beriladi; 1 833 nafar uy-joyi ta’miriga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlarning uy-joyi ta’mirlanadi; 348 968 nafariga bir martalik moddiy yordam ko‘rsatiladi; 217 254 nafar xotin-qizlar va ularning 60 764 nafar voyaga yetmagan farzandlari tibbiy ko‘rikdan o‘tkaziladi hamda buning uchun jami 18,3 mlrd. so‘m mablag‘ sarflanadi; 149 898 nafarga huquqiy yordamlar ko‘rsatiladi, jumladan tug‘ilganlik haqida guvohnoma yoki fuqarolik pasporti olish uchun 1,2 mlrd. so‘m to‘lab beriladi; 331 nafariga dehqonchilik bilan shug‘ullanish uchun jami 46 gektar yer maydoni ajratiladi; 70 nafar oliy o‘quv yurtida tahsil olayotgan xotin-qizlar hamda farzandlariga kontrakt to‘lovining bir qismi(jami 293,2 mln so‘m)to‘lab beriladi; Toshkent viloyatidagi sihatgohlarda 33 075 nafar xotin-qizlari sog‘lomlashtirilishi barobarida, tadbirkorlik faoliyatini boshlashi uchun motivatsion seminarlar tashkil etiladi[7].

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida nogironligi bo‘lgan xotin-qizlarning ijtimoiy hayotga moslashuvi borasidagi davlat siyosatini tarixiy-tahliliy o‘rganish quyidagi ilmiy xulosalarga kelish imkonini beradi:

Birinchidan, 2021-yildan e’tiboran amaliyotga kiritilgan “Ayollar daftari” instituti mamlakatimiz eng yangi tarixida ijtimoiy himoya mexanizmlarini tubdan transformatsiya qilish, yordam ko‘rsatish tizimini vaqtincha xarakterdan tizimli-manzilli ko‘rinishga o‘tkazishning konseptual va huquqiy poydevori bo‘lib xizmat qildi;

Ikkinchidan, Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining 2024–2025-yillardagi rasmiy hisobotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, tizim raqamli platformalar bilan integratsiya qilinishi natijasida an’anaviy moddiy yordam doirasidan chiqib, nogironligi bor ayollarning tibbiy, iqtisodiy va intellektual reabilitatsiyasini qamrab oluvchi yaxlit tarixiy modelga aylandi.Ayniqsa, sanatoriy maskanlarida sog‘lomlashtirilganlarning 51 foizini (27 302 nafar) ayollar tashkil etishi islohotlarning amaliy samarasidir.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Nogironligi bo‘lgan xotin-qizlarning ijtimoiy moslashuvini institutsional qo‘llab-quvvatlash uchun “Ayollar daftari” platformasida ularning AKT va raqamli texnologiyalar bo‘yicha qisqa muddatli bepul kasb-hunar kurslari ulushini yanada oshirish;

2. Respublikada ehtiyojmand xotin-qizlarni protez-ortopediya va reabilitatsiya vositalari bilan ta’minlash qamrovini yanada kengaytirish, shuningdek, og‘ir ijtimoiy ahvoldagi xotin-qizlarga ko‘rsatilayotgan birlamchi

tibbiy-psixologik ko‘mak xizmatlari va sanatoriyalarda sog‘lomlashtirish dasturlari o‘rtasidagi raqamli integratsiyani yanada kuchaytirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev, Sh. M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. / Sh. M. Mirziyoyev. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 416 b.
2. PF-87-sonli Farmon: Prezidentning Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risidagi PF-87-son Farmoni matni.
3. PF-240-sonli Farmon: Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PF-240-son Farmoni tafsilotlari.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 31.03.2022-yildagi 145-son
5. Mirziyoyev, Sh. M. Xotin-qizlarning og‘irini yengil qilish — davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi [Elektron resurs] / Sh. M. Mirziyoyev // Gazeta.uz axborot portali. — 2025. — 7-mart. — Kirish: gazeta.uz
6. Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi. Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi tomonidan 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar sarhisobi [Elektron resurs] / Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi // O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali (Gov.uz). — 2024. — Kirish: gov.uz
7. Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi. 2025-yil davomida Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi tomonidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida tahliliy ma’lumot [Elektron resurs] / Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi // O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali (Gov.uz). — 2025. — Kirish gov.uz